



UO'T: 563.12:551.781(575.16)

Nigora MUSAYEVA,
Davlat unitar korxonasi «Regionalgeologiya» otryad boshlig'i.
G.-m.f.falsafa doktori (PhD)
E-mail: nigora.musayeva.2020@bk.ru.

O'zMU Geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Z.M.Fatxullayeva taqrizi asosida

STRATIGRAPHY OF THE KULJUKTAU MOUNTAIN

Abstract

In this article, Mount Kuldzhuktau is divided into Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic deposits, the boundaries of biostratigraphic layers are based on the lithology of the studied sections, changes in the taxonomic composition of fauna and flora.

Key words: Ordovician, Caradoc, Ashgyl, Brachiopod, Mollusk, Foraminifera, Conodont, Gastropod, Ammonite.

СТРАТИГРАФИЯ КУЛЬДУЖУКТАУСКОЙ ГОРЫ

Аннотация

В данной статье гора Кульджуктау разделена на палеозойские, мезозойские и кайнозойские отложения, границы биостратиграфических слоев основаны на литологии изучаемых разрезов, изменении таксономического состава фауны и флоры.

Ключевые слова: ордовик, карадок, ашгил, брахиопода, моллюска, фораминифера, конодонта, гастропода, аммонит.

QULJUQTOV TOG'INING STRATIGRAFIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Quljuqtov tog'i paleozoy, mezozoy va kaynozoy yotqiziqlarga ajratilishi, biostratigrafik tabaqalarning chegaralari o'rganilayotgan kesmalarning litologiyasi, fauna va floralarni taksonomik tarkibini o'zgarishiga asoslanadi.

Kalit so'zlar: ordovik, karadok, ashgil, braxiopoda, molluska, foraminifera, konodonta, gastropoda, ammonit.

Kirish. Respublikamizda paleozoy, mezozoy va kaynozoy yotqiziqlarining yoshini ishonchli aniqlash va noma'dan konlarini izlash kabi geologik omillar va mezonlarga alohida e'tibor berilib, ularda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, 2014-2018 yillarda "Regionalgeologiya" DUK, stratigrafiya partiyasi xodimlari A.I.Kim, I.A.Kim, M.V.Yerina, F.S.Karimova, F.A.Salimova, N.X.Davlatovlar Quljuqtov tog'lari paleozoy yotqiziqlari stratigrafiyasini (ordovik, silur va devon davri) mukammal o'rgandilar. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Quljuqtov tog'ida 1:50 000 masshtabda bajarilgan geologik suratga olish jarayonida Y.B.Aysanov va A.I.Yegorov tomonidan ajratilgan ordovik va quyi silur bo'limlari yosh hajmini asoslash masalalarini yechishga bag'ishlangan. Shu munosabat bilan avval ajratilgan bo'limlarning yoshini tafsiliy paleontologik asoslash, ularni biostratigrafik va litologik-fatsial asosida o'zaro taqqoslash hamda ba'zi svitalar chegaralari yoshining lateral surilishi masalalari kiritildi.

2017-2020 yillarda "Regionalgeologiya" DUK, stratigrafiya partiyasi xodimlari I.M.Abdusamratov, Y.A.Fedorovlar Quljuqtov tog'lari bo'r yotqiziqlari stratigrafiyasi va litologik xususiyatlarini mukammal o'rganganlar. Bunga ko'ra, Quljuqtov tog'laridagi bo'r davri yotqiziqlari litologik xususiyatlari bo'yicha tabaqalangan foraminiferalar, ikki tavaqali molluska, gastropodalar, ammonitlar va dengiz tipratikanlarining komplekslari bo'yicha Umumiy va Mintaqaviy stratigrafik shkalalarning bo'linishi bilan taqqoslangan.

2002-2005 yillarda "Regionalgeologiya" DUK, stratigrafiya partiyasi xodimi A.A.Abdusamratov Markaziy Qizilqumdagii paleogen yotqiziqlarini litobiofatsial kesmasini tuzgan. Bu natijalar biostratigrafik va fatsial tahlilga asoslangan bo'lib, kesmalarning turlari, ularning tarqalishi, fosforitli qatlamlarning hosil bo'lish sharoiti va stratigrafik bog'liqligini aniqlashga imkon berdi.

2017-2020 yillar T.M.Kremlyakova, H.B.Averburch, H.A.Musayeva paleogen va neogen chegarasi e'tkiziklari b'yiicha biostratigrafik va biofatsial tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqot natijasida neogen va chegaraviy paleogen-neogen yotqiziqlaridan stratigrafik sathlarni belgilashda bioreperlar sanaluvchi kesmada bir-birini ketma-ket almashtiruvchi foraminifera va ostrakodalar komplekslari yig'ilgan va o'rganilgan. Birinchi bor, Quljuqtov tog'ining oligotsen va neogenning yuqori miotsen yotqiziqlaridan yig'ilgan foraminiferalarni N.A.Musayeva tomonidan monografik ta'riflangan va sarbotir svitasi yoshini faunistik asoslashga imkon bergan [1;6;7] (1- rasm).

Quljuqtov tog'lari paleontologik, litologik va fatsial xususiyatlariga ko'ra, paleozoy, mezozoy va kaynozoy erotemalarga ajratiladi. Ular davrlar, bo'limlar, yaruslar, kenja yaruslar, svitalarga bo'linadi.

Tadqiqot metodologiyasi. *Paleozoy erotemasi, yuqori ordovik davri –O3, karadok va ashgil yaruslari – O3(k-aš).* Quljuqtov tog'ida ordovik yotqiziqlari asosan uning sharqiy va janubiy qismlarida tarqalgan qozoqsuv, oydinbuloq va shuruq svitalaridan iborat. *Qozoqsuv svitasi* gravelitlar, konglomeratlar, kremniyli jinslar va vulkanitlarning qatlamchalari va linzalariga ega bo'lgan qumtoshlardan, alevrolitlardan va argillitlardan iborat. Svita ustki qismi alevrolitlarida braxiopodalaridan *Hesperorthis* sp., *Opikina* sp., trilobitlar: *Iliaenus talasicus* Weber, *Calliops hancharensis* Semenova va siyrak tabulyatalardan *Lyopora* sp. mavjud. Qatlam qalinligi 155 m. *Oydinbuloq svitasining* quyi qismi alevrolitlar va qumtoshlarning qatlamchalari ega bo'lgan organogen ohaktoshlardan va gilli dolomitlardan iborat. Ohaktoshlarda *Lyopora regularis* Kim, *Agetolites asiaticus*

gal'aota svitalari paleozoy yotqiziqlarining ustida yuvilgan holda uchraydi (I.M.Abdurazimova, YE.M.Shvetsova, 1987). Ular asosan kulrang gravelit, qumtoshlar va gillardan iborat. Ikki tavaqali, qorinoyoqli mollyuskalar, braxiopodalar ko'p uchraydi. Mollyuskalar – *Grammotodon schapsugensis* Mordv., *Nucula pectinata* Sow., *Pholadomya fabrina* Ag., *Corbula gaultina* Pict. et Camp. Col., *Panope gurgitesneocomiensis* (Leym.), braxiopodalar: *Eudesia tekedgikenica* Smirn., va boshqalar. Qatlam qalinligi 100 m.

Alb yarusi, - K_{1al}, quyi – o'rta kenja yaruslari- K_{1al1-2}. Yomoniyor svitasi to'q yashil, kulrang gillar, alevrolitlar, to'q kulrang qumtoshlardan iborat. Ikki tavaqali va bosh oyoqli mollyuskalar topilgan. Qatlam qalinligi 17-90 m. *Uzunquduq svitasi* yashil – kulrang gillar, alevrolitlar, qumtoshlar va gravelitlardan iborat. Gil jinslarining ichidan ko'p miqdorda foraminifera qoldiqlari topilgan. *Haplophragmoides* sp., *Ammobaculoides* ex gr. *subcretaceus* Cushm. et Aleks. Qatlam qalinligi 4-50 m gacha. Yomoniyor svitasi bilan muvofiq xolatda yotadi. *Shuruq svitasi* kulrang alevrolitlar, gillardan, yashil - kulrang qumtoshlardan iborat. Svita ko'p miqdorda gastropoda yadrolari aniqlangan: *Nerineoptyxis amudariensis* Pchel., ikki tavaqali mollyuskalar: *Limapara lella* Sow., *Sphaera corrugata* Wills., *Liostrea pseudodelletrei* I.Abd., *Rhynchostreon* sp., va boshqalar; gil jinsidan foraminifera qoldiqlari aniqlangan: *Haplophragmoides umbilicatus* Dain., *Trochammina aff. planoconvexa* Mam. Qatlam qalinligi 5-35 m gacha. Uzunquduq svitasi bilan muvofiq xolatda yotadi.

Yuqori bo'lim - K₂, senoman yarusi - K_{2s}. Do'ng'iztov svitasi (I.M.Abdurazimova, 1988), qumtosh mayda donali, to'q qizil rangli, yashil, kulrang gil, alevrolit, kulrang konglomeratlardan iborat. Foraminifera qoldiqlari: *Haplophragmoides sibiricus* Zasp., *Gaudryinopsis asiaticus* (N.Byk.), *Paragaudryina inornata* Suleym.; ikki tavaqali mollyuskalar: *Exogyra trigeri* Coq., *Chlamys elongatus* Orb., *Amphidonte lubrica* Vinok., *Korobkovitrigonia ferganensis* (Arkh.); Qatlam qalinligi 40-144 m gacha. Svita shuruq svitasi bilan yuvilgan holda yotadi. *Uchquduq svitasi* (I.M.Abdurazimova, 1988) do'ng'iztov svitasi bilan muvofiq holatda yotadi. Svita yashil - kulrang qumtosh mayda donali, kulrang gravelit har xil donali, yashil-kulrang alevrolitli gil. Foraminifera qoldiqlari - *Haplophragmoides semiinvolutus* Zasp., *Gaudryinopsis asiaticus* (N.Byk.), *Paragaudryina inornata* Suleym.; ikkitavaqali mollyuskalar: *Korobkovitrigoniadar waseana* (Rom.). Qatlam qalinligi 5-35m.

Turon yarusi - K_{2t}, quyi – o'rta kenja yaruslari- K_{2t1-2}. Bu kenja yaruslar jayronto'y va kindiktepa svitalari kiradi. *Jayronto'y svitasi* (I.M.Abdurazimova, 1988) yashil-kulrang gillar, alevrolitlardan va kulrang, qizg'ish qumtoshlardan iborat. Ikkitavaqali mollyuskalar: *Inoceramus labiatus* Schloth., va boshqalar. Foraminiferalar: *Haplophragmoides sibiricus* Zasp., *H. turonicus* (Zhuk.), *Ammomarginulina* ex gr. *amudariensis* (Zhuk.), *Reophax kysylcumensis* Suleym., *Recurvoides kyngyrtauensis* Suleym., *Ammomarginulina amudariensis* (Zhuk.), *Vialovia zerabulakensis* Suleym., *Gaudryinopsis asiaticus* (N.Byk.), *Paragaudryina asiaticamedia* Suleym. topilgan. Qatlam qalinligi 40-110 m gacha. Svita uchquduq svitasi bilan nomuvofiq holda yotadi. *Kundukmena csoma* (I.M.Abdurazimova, 1988) sariq, yashil qum, mayda donali, och kulrang qumtosh mayda donali, yashil – kulrang gillardan iborat Svita ikki tavaqali mollyuskalar: *Cucullaea* ex gr. *crassa* Burk., *Lima* sp., *Megatrigonia khoresmensis* Beljak., *Crassatella regularis* Orb., *Tellina semicostata* (Roem.), gastropodalar: *Caucasella* cf. *acanthophora* (Muller), foraminiferalar: *Gaudryinopsis asiaticus* (N.Byk.), *Paragaudryina inornatamedia* Suleym. Qatlam qalinligi 14-45m gacha. Jayronto'y svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Yuqori turon - santon yarusi - K_{2t3-st}. Lovlov svitasining (I.M.Abdurazimova, 1988), quyi qismi sariq, yashil qum, qumtosh, gillardan iborat. Svita gastropodalar, ikki tavaqali mollyuskalar va foraminifera qoldiqlari aniqlangan. *Gyrodes subtenellus* Pchel., *Gaudryinella pseudoasiatica* N.Byk., *Pseudoclavulina kasarini* Suleym. et Arap. Qatlam qalinligi 68-87m gacha. Svita kidiktepa svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Kampan-maastricht yaruslari - K_{2km-m}. Qoraqota svitasi (I.M.Abdurazimova, 1988g.) ikkita kenja svitani o'z ichiga oladi, quyi qismi yashil, sarq qum, qumtoshlar, mayda donali. Mollyuskalar: *Liostrea acutirostris* Nilsson foraminiferalar: *Ammoglobigerina* ex gr. *tenuis* (Belous.) topilgan, qatlam qalinligi 4-65m gacha [6;7;8;10].

Kaynozoy erasi, paleogen davri P, paleotsen bo'limi-P₁¹, dat-tanet (yuqori) yaruslari -P₁^{1d}-P₁^{2t}. Oqjar svitasi (K.V.Bobkov, G.P.Kreydenkov, 1961). Oq rangli ohaktosh, qumtosh. Mollyuska qoldiqlari: *Madiolus elegans* Sow., *Fusus lapparenti* Br.et Corn., *Tornatella parisiensis* (Desh.). Qatlam qalinligi 12 m. Svita maastricht yotqiziqlari bilan nomuvofiq holatda yotadi.

Buxoro svitasi (O.S. Vyalov, 1934). Oq rangli ohaktoshlarda mollyuska qoldiqlari topilgan: *Cardita turkmenica* Vial., *Corbula (Cuncocorbula) asiatica* Vial. Moshnost do 5 m. Svita oqjar svitasi bilan yuvilgan holatda yotadi [43; 68; 38-60-b].

Qozoqto'v svitasi (R.K.Makarova, A.A.Abdusamatov). Sariq rangli qum, gillardan iborat. Ikki tavaqali mollyuskalar: *Glycymeris duponti* Cossm., *Pitar duponti* (Cossm.), *Corbula (Cuneocorbula) asiatica* Vial., va boshqalar. Qatlam qalinligi 8 m. Svita buxoro svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Quyi-o'rta eotsen (P₂¹-P₂²), ipr yarusi (quyi) - P₂¹ⁱ. Nura svitasi (A.V.Begishev, A.G.Kutepov) svita kulrang, yashil, gillardan iborat. Foraminiferalar: *Anectina paleocenica* Suleym., *Haplophragmoides subsperoides* Subb., *Pigenerina paleogenica* Suleym., va boshqalar. Qatlam qalinligi 20m. Cvita qazoqto'v svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Ipr (yuqori)-barton (quyi) yaruslari P₂¹ⁱ- P₂^{2b}. Sugrali svitasi kulrang, jigarrang, mergel, gillar va ohaktoshlardan iborat. Foraminiferalar: *Lenticulina cavellieri* Taxier., *Bolivina mitgarziana* Balakh., *Margulinopsis fragaria* (Gumb.) va boshqalar. Qatlam qalinligi 40m. Svita nura svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

O'rta – yuqori eotsen bo'limi - (P₂²- P₂³). barton yarusi (yuqori) - P₂^{2b}

Qultobon svitasi yashil-kulrang gillarda iborat. Foraminifera qoldiqlari: *Globorotalia vesicula* Averb., *Acarinina crassa* (Balakh.), *A. interposita* Subb., *A. pentacamerata* (Glaessn.), *Uvigerina bukovae* Bolli., va boshqalar. Qatlam qalinligi 180 m. Svita sugrali svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Priabon yarusi -P₂^{3-p}. Moral svitasi yashil – kulrang, oq rangli gillardan iborat. Foraminiferalar: *Bolivina antegressa* Subb., *Bulimina truncata* (Gumb.), *Eponidella lucida* (Min.), *Nonionella azerbaijanica* Chal., *Bolivina nobilis* Hantk., *Speroplectamina tuaevi* Moroz., *Lenticulita hermanni* Botz., *Globigerina thecatropicalis* Blow. va boshqalar topilgan. Qatlam qalinligi 52 m. Svita qultobon svitasi bilan muvofiq holatda yotadi.

Paleogen va neogen davrlari, oligotsen - quyi miotsen bo'limlari -P₃-N₁, ryupel, xat, akvitan yaruslari. Sarbotir svitasi qizil rangli gillar va qumtoshlardan iborat. Foraminifera qoldiqlari aniqlangan: *Hyperammia caucasica* Bogd., *Haplophragmoides stavropolensis* Ter-Grig., *Cyclammina constrictimargo* R. Stew. Et K. Stew., *Cibicidoides tschagalaensis* (Korov) va boshqalar. Qatlam qalinligi 19-45 m gacha. Svita moral svitasi bilan nomuvofiq holatda yotadi.

Neogen davri - N, quyi - o'rta miotsen N₁¹ - N₁².

Og'itma svitasi to'q qizil, och jigarrang alevrolit, gillardan iborat. Foraminifera qoldiqlari: *Quinqueloculina akneriana* (Orb.), ostrakodalar: *Eusyprius geratus* Gr., *Mediocypriordinate* Schn. va boshqalar. Qatlam qalinligi 50-115 m gacha. **To'rtlamchi davr – Q, yuqori eopleystosen Qi.** *Tashaqir svitasi* kulrang qumtoshlar, qumlar, gillardan iborat. Qatlam qalinligi 2 m gacha. *Golotsen* prolyuvial yotqiziqlardan iborat. Qatlam qalinligi 6 m [2;3;4;5;6;10].

Xulosa va takliflar. Shu kungacha Markaziy Qizilqumda (Quljuqtov) paleozoy, mezozoy va kaynozoy erotemalarida keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan bo'lsa ham, paleogen davri yotqiziqlaridagi chegaralarni aniqlashda to'liq paleontologik, stratigrafik masalalar o'zining to'liq yechimini topmagan. Olingan yangi biostratigrafik ma'lumotlar asosida Quljuqtov tog'larining paleogen davri yotqiziqlarining yangilangan stratigrafik sxemasi ishlab chiqildi, u mintaqaning geologik tuzilishiga oid zamonaviy qarashlarni aks ettiradi va legendalar tuzish uchun yangilangan stratigrafik asos sifatida 1:50 000 va 1:100 000 masshtabli geologik xaritalar tuzishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Kim A.I, Kim I.A. va b., Markaziy Qizilqum ordovik, silur, devon va karbon davrlarining toshqotgan faunalar ma'lumotnomasi (Tomditov, Aristontov, Sangruntov, Quljuqtov) // GFU, "MRI" DM.-Toshkent 2022, 450 b.
2. Мусаева Н.А. Распространение фораминифер в сарбатырской свите предгорий хр. Кульджуктау и прилегающих территорий // Сборник, Материалов международной научно-практической конференции. АО ИГИРНИГМ. Ташкент 2019. 388-391 с.
3. Мусаева Н.А. Граница палеогена и неогена по фораминиферам в районе колодца Сарбатыр (Центральные Кызылкум) // Геология и минеральные ресурсы. №2, Ташкент 2020, 20-24 с.
4. Musayeva N.A. Quljuqtov (Markaziy Qizilqum) paleogen yotqiziqlarining stratigrafiyasi va foraminiferasini o'rganish tarixi // Ekologiya xabarnomasi. №2, Toshkent 2021, 6-9 b.
5. Musayeva N.A. Quljuqtov eotsen yotqiziqlarining foraminiferalar bo'yicha stratigrafiyasi (Markaziy Qizilqum) // Dissertatsiya, Neft va gaz konlari qidiruvi instituti. Toshkent, 2022. 22-30 b.
6. Пятков К.К., Пяновская И.А. и др. – 1967. Геологическое строение Центральных Кызылкумов. Изд-во "ФАН", УзССР, Ташкент.
7. Стратиграфический словарь Узбекистана. //Тр. ИМР. Ташкент, ГИДРОИНГЕО, 2001.
8. O'zbekiston fanerozoy toshqotgan faunalari atlasii/I jild, Paleozoy. Toshkent 2007, 505 b.
9. O'zbekiston fanerozoy toshqotgan faunalari atlasii/II jild, Mezozoy va kaynozoy. 213 b.